

3. Yuldasheva M. “Biologiya o‘qitish metodikasi”. Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun.
5. Pedagogika ensiklopediyasi. Toshkent, 2019.

IQLIM O'ZGARISHINING HAYOT FAOLIYATIGA TA'SIRI

Yoqubova Mehribon Mustafoyevna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo'nalishi 8,,B"-2023 guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu tezisda global muammolarning mohiyati, xususan iqlim o'zgarishi va uning ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yoritilgan. Xalqaro hamjamiyatning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash borasidagi hamkorlik siyosati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda iqlim o'zgarishi va cho'llanish jarayonlari, ularning sabab va oqibatlari, hamda cho'llanishga qarshi amalga oshirilayotgan davlat siyosati va xalqaro loyihalar bayon etilgan.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается сущность глобальных проблем, включая изменение климата и его экологические, социальные и экономические последствия. Анализируется международное сотрудничество в области борьбы с климатическими изменениями. Особое внимание уделено изменению климата в Узбекистане, процессам опустынивания, их причинам и последствиям, а также государственным мерам и международным инициативам по противодействию опустыниванию.*

Annotation: *This article discusses the essence of global challenges, particularly climate change and its environmental, social, and economic impacts. It examines international cooperation aimed at combating climate change. The article also highlights climate change trends in Uzbekistan, the intensification of desertification, its causes and consequences, as well as national strategies and international initiatives implemented to combat desertification.*

Kalit so'zlar: *global muammolar, iqlim o'zgarishi, ekologiya, xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish, cho'llanish, O'zbekiston, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, adaptatsiya choralari.*

KIRISH

Ushbu tezisda global muammolar, xususan iqlim o'zgarishi va cho'llanish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Iqlim o'zgarishi inson faoliyati va tabiiy jarayonlar natijasida yuzaga keladigan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Xalqaro hamjamiyat bu masalalarni hal qilish uchun turli hamkorlik loyihalarini amalga oshirmoqda. O'zbekiston hududida kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari va cho'llanish jarayonlari mamlakatning ekologik barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda insoniyat oldida turli global muammolar mavjud bo'lib, ularning eng jiddiylaridan biri iqlim o'zgarishidir. Atmosferadagi issiqxona gazlari miqdorining oshishi, o'rmonlarning kamayishi, sanoat chiqindilarining ko'payishi va tabiiy resurslarning noto'g'ri ishlatilishi iqlim o'zgarishiga olib keladi. Bu jarayonlar ekologik

muammolar – qurg'oqchilik, suv resurslari tanqisligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining kamayishi, shuningdek ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar – migratsiya, sog'liqni saqlash muammolari va iqtisodiy zararlarni keltirib chiqaradi.

Iqlim o'zgarishi bilan kurashish bo'yicha xalqaro hamjamiyat turli shartnomalar va loyihalarni amalga oshirmoqda. Masalan, Parij kelishuvi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va iqlim bo'yicha xalqaro konferensiyalar global darajada muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

Ushbu hamkorlik doirasida mamlakatlar yangi texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va cho'llanishga qarshi qo'shma loyihalarni amalga oshiradi. O'zbekiston iqlim o'zgarishidan sezilarli ta'sir ko'rmoqda.

Asosan cho'llanish jarayoni Qoraqalpog'iston, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo hududlarida kuchli namoyon bo'ladi. Bu jarayon qishloq xo'jaligi yerlarining degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi va ekotizimning buzilishiga olib keladi.

Mamlakatimizda cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, daraxt ekish kampaniyalari, barqaror qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish va xalqaro loyihalarda ishtirok etish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashga harakat qilinmoqda.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, global iqlim o'zgarishi va cho'llanish muammolari insoniyat va tabiat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ularni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish strategiyalari va mamlakatlar darajasida samarali chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar va davlat siyosati ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Climate Change 2023: Synthesis Report. Geneva: IPCC, 2023.
2. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). Paris Agreement. 2015.
3. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable Development Goals and Climate Action. New York, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi. O'zbekistonning iqlim o'zgarishi va cho'llanish bo'yicha milliy strategiyasi. Tashkent, 2021.
5. UNEP (United Nations Environment Programme). Global Environment Outlook 6. Nairobi, 2019.
6. World Bank. Climate Risk Profile: Uzbekistan. Washington D.C., 2020.